

Mahsulotlarni vakuum sublimatsion quritish texnologiyasi

O'zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti olimlari tomonidan sublimatsion quritish qurilmasi yaratildi.

U o'zida quyidagi xususiyatlar va afzalliklarni mujassam etgan:

- energiya tejamkor;
- to'liq tozalash va yuvish onson bo'lgan ishchi kamera;
- oldindan o'rnatilgan retseplar va yangi retseplar kiritish imkoni mavjud bo'lgan intuitiv tushunarli boshqaruv tizimi;
- oddiy boshqarish va texnik xizmat ko'rsatish;
- masshtablanuvchi dizayn va import analoglarga nisbatan arzon narx.



Vakuum sublimatsion quritish texnologiyasi oziq-ovqat mahsulotlarini, shu jumladan, meva va sabzavotlarni, shuningdek, mikrobiologik va biomedikal preparatlarni (jonli va faollashtirilmagan vaktsinalar, mikroorganizmlar madaniyati, plazma, diagnostik preparatlar, vitaminlar va boshqalarni) uzoq vaqt saqlash uchun ishlatiladi.